

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.X.Eshmuradov	
Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari:	
til o'rganuvchilar tajribasi	325
M.E.Tursunova	
Anglitizmlarning media mayondagi faoliyat xususiyatlari	329
H.A.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi	332
A.M.Mamadjanov	
Ta'lim muassasalarida fuqarolik muhofazasi darslarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar	336
M.I.Ehsanova, N.B.Salimova, M.A.Yulchiyeva	
So'z o'zlashtirish hodisasi talqini va uning til lug'at tarkibi boyishidagi o'rni	339
N.Y.Ortikova	
Fonetik hodisalar va tovush o'zgarishlarining badiiy-estetik vazifalari (Anvar Obidjon she'riyati misolida)	342
A.M.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	349
N.A.Rasulova	
Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash	357
D.J.Jurayeva	
Zahiriddin Muhammad Boburning muhabbat falsafasining o'ziga xos xususiyatlari va estetik tahlili	362
K.Q.Axmedova	
Ijtimoiy tarmoqdagi muloqotning lingvostilistik xususiyatlari.	366
R.Y.Xolikov, O.A.Qo'chqarov	
Shaharlar tuproqlarining texnogen ifloslanishi va uning ekologik oqibatlarini.	370
F.M.Tillaxo'jayeva	
Vodiyning iqtisodiy rivojlanishida nemis tadbirkorlarning hissasi	374
A.Goipov	
Burchakni teng uchga bo'lishning bir usuli haqida (burchak triseksiyasi haqidagi masala)	378
A.A.Boltayev	
Ibn Arabiy va ta'vil ilmi	380
L.Alimardonov	
Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy reklamani rolini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	385
Z.Y.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	388
S.Parmanov	
Siyosiy madaniyatning shakllanishi bilan bog'liq tahlillar	393
R.Urazova	
Avesto yashtlarida mitranning sifatleri	397
Sh.X.Xonqulov	
Hamza Hakimzoda Niyoziy o'limining O'zbekiston SSRdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'siri.....	404
Sh.B.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhraivardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	411
U.E.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	415
I.Ch.Shermanov	
Bioetika: fan-texnologiya va ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyati (<i>ijtimoiy-falsafiy tahlil</i>)	419
U.A.Azimov	
Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili.....	424
A.A.Abdumalikov	
Jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli	428
X.N.Xolmirzaev	
Jamiyat taraqqiyotida inson salohiyatini namoyon bo'lish omillari.....	434

YOSHLARNING DEMOKRATIK ISLOHOTLARGA AKSILOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI TAHLILI

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ РАЗВИТИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ МОЛОДЕЖИ К ДЕМОКРАТИЧЕСКИМ РЕФОРМАМ

ANALYSIS OF THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF AXIOLOGICAL ATTITUDE OF YOUTH TO DEMOCRATIC REFORMS

Ulug'bek Abduxalilovich Azimov¹

¹Ulug'bek Abduxalilovich Azimov

– Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali v.v.b.dotsent, f.f.b.f.d. (PhD)

Аннотация

Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari, qadriyatlarni olimlar tomonidan o'rganilishi va muammolari tahlil etilgan. Shuningdek, Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan buyuk mutafakkir allomalarning ham qadriyatlar masalasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganib chiqilganligi, yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatlarini rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы формирования аксиологического отношения молодежи к демократическим преобразованиям в нашей стране, изучение ценностей учеными и проблемы. Также констатируется, что великие мыслители, сыгравшие важную роль в истории культуры Востока, изучали вопрос о ценностях с научной точки зрения, и что совершенствование механизмов формирования ценностных установок молодежи к демократическим реформам имеет неотложное значение.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of the axiological attitude of young people to democratic reforms in our country, the study of values by scientists and the problems. Also, it is stated that the great thinkers, who played an important role in the history of Eastern culture, studied the issue of values from a scientific point of view, and that the improvement of the mechanisms of developing axiological attitudes of young people to democratic reforms is of urgent importance.

Kalit so'zlar: yoshlar, demokratiya, demokratik islohotlar, aksiologiya, ma'naviy qadriyatlar, siyosiy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, voqelikka qadriyatli munosabat.

Ключевые слова: молодежь, демократия, демократические реформы, аксиология, духовные ценности, политические ценности, нравственные ценности, ценностное отношение к действительности.

Key words: youth, democracy, democratic reforms, axiology, spiritual values, political values, moral values, valuable attitude to reality.

KIRISH

Jahon ijtimoiy hayotida yuz berayotgan global o'zgarishlar yoshlar ongida borliqni asrab-avaylash, moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash tuyg'usini shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yoshlarda jamiyat hayotida bo'layotgan o'zgarishlar, demokratik islohotlarga nisbatan aksiologik munosabatni shakllantirish va rivojlantirish, nigilistik dunyoqarashni yo'qotishda asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Umumiy aksiologik sistemada yoshlar dunyoqarashi bilan ijtimoiy sub'ektlarning voqelikka munosabatini qadrlash tuyg'usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho belgilari yuzaga chiqmoqda. Aksiologik printsiplar yoshlarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma'naviy mezonlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dunyoda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilmoqda. Aksiologik ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, kommunikativ asoslari, yoshlarda qadriyat tizimini rivojlantirishning axloqiy tarkibini takomillashtirish mezonlari o'rganilmoqda. Yoshlarda shaxsiy va kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning didaktik

texnologiyalari (Parij-IX-Dofin universitetida) o'rganilayotgan bo'lsa, yosh kadrlarni tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar va an'analarga aksiologik munosabatni tarkib tortirishga doir maxsus kurs dasturlari (Toyo universitetida) ishlab chiqilmoqda [4; 407-b]. Bu esa yoshlarning demokratik islohotlardagi munosabatlarini aksiologik jihatdan rivojlantirish ehtiyojini o'rganish zaruratini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida yoshlarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy voqelikka aksiologik munosabatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarning keskin ravishda kuchayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq. Biz bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e'tibor berishimiz zarur".[5; 257-b] Bu yoshlarda fuqarolik jamiyati sharoitida demokratik qadriyatlar tizimi asosida ularning tarbiya mezonlarini va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, demokratik islohotlarga aksiologik munosabatlarini rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan buyuk mutafakkir alloma Forobiy ham qadriyatlar masalasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganib chiqqan. Uning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlari "Madina al-Fozila" risolasida o'z aksini topgan. Qadriyatlar masalasiga Beruniy asarlarida ham katta e'tibor qaratilgan. Uning fikricha, ma'naviy qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. O'rta asrlarda siyosiy qadriyatlarning rivojlanishida sohibqiron Amir Temurning xizmatlari alohida o'rin egallaydi. Buyuk mutafakkir Nizomiddin mir Alisher Navoiy ham o'z asarlarida qadriyatlar masalasiga inson manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan.

Xorijiy ijtimoiy fanlarda M. Kissel, E.Gartman, R.Lapi, F.Lottse, M.Rokich, R.Perri, MDH olimlaridan M.A Makarevich, M.S.Kagan, R.S Gurevichlar aksiologik ong va voqelikka qadriyatli munosabat yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Yoshlarda voqelikka aksiologik munosabatni rivojlantirish ilmiy muammo sifatida mamlakatimizda Q.N.Nazarov[6], T.U.Abdullayev[1], M.A.Karimova[2], A.Nurov[7], T.T.To'ychiyeva[8], F.X.Yuldasheva[9], A.A.Qambarov[11] kabi tadqiqotchi faylasuf olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ular qadriyatlarga pozitiv voqelik sifatida qarash va ulardan milliy-ma'naviy merosni qayta tiklash, barkamol avlodni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalasi, ya'ni O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasini mustahkamlash omili sifatida qarash g'oyasini ilgari surganlar.

Yoshlarda aksiologik munosabatni rivojlantirishning falsafiy asoslari A.Begmatov, M.Bekmuradov, V.Kanke, J.Kim, M.Kaxxarova, Q.Nazarov, N.Rozov, I.Surina, J.Tulenov, E.Yusurov[10; 175-b] lar tomonidan tadqiq etilgan.

Lekin yoshlarning ijtimoiy munosabatlarida aksiologik qarashlarning demokratik islohotlarga bog'liq masalalari keng o'rganilmagan, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlatda yoshlarda shakllantirilishi zarur bo'lgan aksiologik munosabatning falsafiy jihatlar alohida tadqiq etilmagan. Ana shu dolzarbliktan kelib chiqqan holda mazkur maqolada yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarining ahamiyatini asoslashga harakat qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bu jamiyat oldida turgan muammolarni hal etishga oqilona yondashishning oliy ko'rinishidir.

Aslida insonni kamolotga yetkazish tabiatning vazifasi emas, u antropologik muammo bo'lib, shaxs va sotsium o'rtasidagi munosabatlar mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bunday kamolotni, avvalo, shaxsning o'zi istashi, o'zi-o'ziga ma'qul keladigan ma'naviy, axloqiy tartiblarni, psixofiziologik normalarni o'zi yaratishi zarur. Bu o'rinda insonparvar va xalqparvar, adolat

printsipalarini amaliyot usuli qilib olgan davlat sotsium vakili yoki takomil buyurtmachisi sifatida maydonga chiqishi mumkin.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning tadqiqi asosida ularning qadriyatli-ijodiy tafakkurining ijtimoiy-siyosiy faoliyat jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan;

milliy qadriyatlar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda axloqiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishning ajralmas qismi ekanligi asoslangan;

demokratik islohotlar negizida yoshlarning aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda yuksaltirishga oid xulosalar ishlab chiqilgan.

Natijalarning ilmiy ahamiyati fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirishning falsafiy jihatlarini tadqiq qilinganligi, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirish va uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri, xususan, Yangi O'zbekistonning kelgusi taraqqiyot bosqichidagi ahamiyatini chuqur anglab yetishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

XULOSA

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash, huquqiy davlatni shakllantirish unda yashayotgan fuqarolar, xususan, yoshlarning mazkur jarayonlarga munosabatiga uzviy bog'liq.

2. Inson mentaliteti bilan bog'liq bo'lgan aksiologik ong ijtimoiy islohotlarning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, olam, voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

3. O'zbekiston yoshlarida demokratik islohotlarga aksiologik munosabatning shakllanish jarayonida aksiologik ierarxiya (aksiologik ong – qadriyat – faoliyat birligi) va aksiologik spektrida (o'tmish – bugungi kun – kelajak) fundamental omil bo'lishi aniqlangan.

4. O'zbekistonda shakllangan sharqona qadriyatlarda individuallikdan jamoaviy manfaatlarining ustunligi va ota-onaga hurmat, kattalarga otalarcha g'amxo'rlik (paternalizm) ustunlik qiladi. Ilmiy izlanishlarimiz asosida yurtimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirishda jamoaviylik va paternalizm determinant omillardan biri ekanligi aniqlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Абдуллаев Т.У. Диалектика национальных и общечеловеческих ценностей в сфере быта. Дисс...д-ра философ. наук. – Тошкент: 1992. (Abdullaev T.U. Dialectics of national and universal values in the sphere of everyday life. Diss...Dr Philosopher. Sciences. - Tashkent: 1992.)

2. Каримова М.А. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий муҳофазалашда исломий қадриятларнинг ўрни. Фалсафа фан...номзоди дисс.автореферати. –Тошкент: 2008. (Karimova M.A. The role of Islamic values in the social protection of women in Uzbekistan. Philosophy science...candidate diss. abstract. -Tashkent: 2008.)

3. Крюков В.В. Сумма аксиологии. - Новосибирск: НГТУ, 2018. - С.19-20. (Kryukov V.V. The sum of axiology. - Novosibirsk: NSTU, 2018. - S.19-20)

4. Lynch, Lisa M. A Needs Analysis of Training Data: What do we want, what do we have, can we ever get it? NBER Conference on Research in Income and Wealth: Labor Statistics Measurement Issues. Ed.J.Haltiwanger, M. Manser and R. Topel. -Chicago: University of Chicago Press, 1998. P. 407.

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2021. – Б 257. (Mirziyoyev Sh.M. New Uzbekistan strategy. -Tashkent: Uzbekistan. 2021. – B 257.)

6. Назаров К.Н. Система ценностей: диалектика устойчивости и изменчивости. Автореф.дисс... докт.филос.наук. –Тошкент: 1997. (Nazarov K.N. System of values: dialectic of stability and variability. Abstract of diss.... Doctor of Philosophy. – Tashkent: 1997.)

7. Нуров А. Национальные и общечеловеческие ценности и их роль в нравственном воспитании подрастающего поколения. Автореф.дисс...докт.пед.наук. –Тошкент: 2004. (Nurov A. National and universal values and their role in the moral education of the younger generation. Diss. – Tashkent: 2004.)

8. Тўйчиева Т.Т. Ўзбек маънавий қадриятлари тизимида урф-одат, анъаналарнинг ўрни. Фалсафа фан.номзоди...дисс.автореферати. –Тошкент: 2000. (Toychieva T.T. The place of customs and traditions in the system of Uzbek spiritual values. Candidate of philosophy...diss. abstract. -Tashkent: 2000.)

9.Юлдашева Ф.Х. Роль ценностей ислама в процессе духовного обновления общества. Автореф. дисс... канд.филос.наук. –Тошкент: 2006. (Yuldasheva F.Kh. The role of Islamic values in the process of spiritual renewal of society. Abstract diss...candidate of philosophic sciences. – Tashkent: 2006.)

10. Юсупов Э. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.175. (Yusupov E. Independence and spirituality. - Tashkent: Uzbekistan, 2001. - B.175.)

11. Қамбаров А.А. Жамиятнинг маънавий янгиланиши жараёнида илмий қадриятларнинг роли. Фалсафа фан.номзоди дисс...автореферати. –Тошкент: 2006. (Kambarov A.A. The role of scientific values in the process of spiritual renewal of society. Dissertation of the candidate of philosophy. -Tashkent: 2006.)